

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON
TIL VA MADANIYAT

Metodika

2022 Vol. 2 (4)

www.metodika.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

Metodika

2022 Vol. 2 (4)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinbosari: Gulnoza Jo'rayeva
Shohruh Abdiraimov

Mas'ul kotib: Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Saidbek Boltaboyev (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog'iston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Roza Niyozmetova, Shohida Yusupova, Valijon Qodirov, Tursunoy Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Hoshimjon Ahmedov, Saodat Qambarova, Matluba Jabborova, Odina Saidahmedova, Dilfuza To'xliyeva, Mahfuza To'ychiyeva, E'zoza Sobirova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Metodika" seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. "Metodika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. "Metodika" seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Saodat Kambarova

Blum taksonomiyasi – o'quv materiallarini o'zlashtirishning muhim vositasi sifatida 4

Rayhona Tillayeva

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish – yaratuvchanlik omili sifatida.....13

Omonulla Bayjigitov

Badiiy matnlarda obrazli frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatlari.....25

Ерлан Нугуманов

Әдебиет пәнін оқытудағы эмоция, сыни ойлау, көшбасшылық мәселелери.....34

Farrux Qulsaxatov

“Boburnoma” va fanlararo integratsiya.....43

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova

O'quvchilarda insho matnidagi xatboshilarning vazifaviy-mazmuniy turlariga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.....51

Klaraxon Mavlonova

Ona tili darslarida matnning tuzilish xususiyatlarini o'rganish zarurati.....60

Odinaxon Saidaxmedova

Til o'zlashtirish: ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi hamda unga doir nazariyalar72

Sanobar Kuldashaeva

Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish86

Dilnoza Boymaxmatova

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda to'garak mashg'ulotlarining o'rni.....100

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Gulnoza Jurayeva

Bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'riyatning ahamiyati (Muazzam Ibrohimova ijodi misolida)..... 112

Dilfuza Tuxliyeva

Mumtoz lirik janrlarni o'qitishga oid nazariy qarashlar va ularning milliy metodikadagi ahamiyati 121

Iroda Ishonxanova

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasini qo'llashning ahamiyati..... 136

Mastona Norqulova

“Alpomish” dostonini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tashkil qilish usullari....148

Mahliyo Elboyeva

O'zbek bolalar adabiyotini o'rganishda texnologik yondashuv..... 157

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR**Blum taksonomiyasi – o'quv materiallarini o'zlashtirishning muhim vositasi sifatida**Saodat Kambarova¹**Abstrakt**

Maqolada Blum taksonomiyasining ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi o'ziga xosliklari xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, adabiy ta'lim jarayonida Blum taksonomiyasi darajalari mezonlariga asoslanish mavzuga doir adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, tizimlashtirish va muayyan sharoitlarda ulardan foydalanishga xizmat qilishi nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *taksonomiya, Blum taksonomiyasi, bosqich, daraja, mezon, eslash, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash, yaratish.*

Kirish

So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan modernizatsiya jarayonlari puxta bilim berish va o'zlashtirishni kafolatlovchi yondashuv sifatida baholanmoqda. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish dolzarb ijtimoiy-ta'limiy zarurat ekanligi ko'zda tutilsa, "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion lohiyalarni joriy etish" [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni 2019, 1] vazifalari ta'lim xodimlari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Bu esa milliy va xorij tajribalari uyg'unligiga asoslangan zamonaviy yondashuvlarni taqozo etadi.

Ma'lumki, buyuk ajdodlarimizning dunyo tammadunidagi zalvorli o'rni zamirida, shubhasiz, o'tmish madrasa-maktablaridagi ibratli tajribalar yotadi. Xususan, so'nggi paytlarda dunyoda ta'limni rivojlantirish omili sifatida e'tirof etilayotgan "Case-study" (ingliz-

¹Kambarova Saodat Irkinovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsenti.

E-pochta: saodatkambarova73@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9700-0685

Iqtibos uchun: Kambarova S.I. 2022. "Blum taksonomiyasi – o'quv materiallarini o'zlashtirishning muhim vositasi sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2 (4): 4-12.

cha “case” – voqea, hodisa; “study” – o‘rganmoq) texnologiyasi tarixiga nazar solinsa, u dastlab ko‘hna Sharq, keyinchalik G‘arb mamlakatlari ta‘lim tizimida ommalashgani oydinlashadi. Fikrimiz isboti sifatida aytish mumkinki, Abu Rayhon Beruniy (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”), Alisher Navoiy (“Xamsa”), Zahiriddin Muhammad Bobur (“Boburnoma”), Xondamir (“Makorim ul-axloq”) kabi qator qomusiy allomalarimiz asarlarida ilgari surilgan keyslar barcha zamonlarda ham shaxs qobiliyatlarini namoyon etish, xalq va jamiyat oldidagi burch va mas‘uliyatini anglash, mavjud imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga undash vazifasini bajarishi jihatidan ham tarbiyaviy ahamiyatga molik. Farhodning Iskandar ko‘zgusi sirini ochish yo‘lidagi mashaqqatlarni yengib o‘tishi, Arman yurtida tog‘ qazib, suv chiqarish uchun aql-idrok va kuch-g‘ayratini to‘liq safarbar etishi lavhalari misolida Alisher Navoiyning insonni murakkab vaziyatlardan chiqish uchun aniq va yagona to‘xtamga olib keluvchi rang-barang keyslarni taqdim etganligi ayon bo‘ladi. Bunday mazmundagi ta‘lim-tarbiya shakllari, albatta, hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan turli muammolarni bartaraf etishda o‘quvchilarga zarur dasturilamal vazifasini o‘taydi.

Asosiy qism

Axborotlashgan asr yoshlarining dunyoqarashi, tafakkur tarzi va qiziqishlari, albatta, milliy va global ta‘lim tendensiyalariga zaruratni yuzaga keltiradi. Shunday ekan, bunday ehtiyoj ta‘lim jarayonida milliy tajribalarda sinovdan o‘tgan keyslarga asoslangan muammoli o‘qitish, suqrotona yondashuv (savol-javob)lar qatori jahon miqyosida muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinayotgan konstruktivizm (Djon Dyui), bola intellektining rivojlanishi (Jan Piaje), intellektning ko‘p turliligi (Govard Gardner), eng yaqin rivojlanish sohasi (Lev Vigotskiy), shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim (Doroti Dou Nolt) kabi nazariya va yondashuvlardan oqilona foydalanish mexanizmlarini taqozo etadi. Mazkur nazariyalar mohiyatan o‘quvchilarning erkin muloqot yuritishi, bahs-munozaralarda fikrlar rang-barangligiga erishishi va sog‘lom raqobatga asoslangan tafakkurini o‘stirishni ham ko‘zda tutadi.

Ta‘kidlash joizki, shaxs bilish jarayonlari va individual xususiyatlari rivojida Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyasi muhim o‘rin tutadi [[https://ru.wikipedia.org/wiki. Википедия. Свободная энциклопедия](https://ru.wikipedia.org/wiki.Википедия.Свободная_энциклопедия)].

Taksonomiya (yunoncha taxis – joylanish, qator va nomus –

qonun [O'zbekiston milliy ensiklopedoyasi: 58]) so'zi o'zida tasniflash, tizimlashtirish tamoyillari va amaliyoti ma'nolarini ifodalaydi. Fanga 1813-yilda shved botanigi O.Dekandol tomonidan kiritilgan mazkur atama dastlab organizmlarning xilma-xilligi, xususiyatlari va tasnifini o'rganishda qo'llanilgan. Keyinchalik B.Blum, D.Gilford, R.Gagne, M.Gyur, Gronland, D.Xeynot, A.Galperin, A.Matyushkin, Ch.Nosal va M.Obara kabi olimlar tomonidan ham taksonomiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda intellektual faoliyatning barcha toifalari konkret va keng ko'lamda qamrab olingani kuzatiladi. Lekin Blum taksonomiyasi nisbatan puxta ishlangani bilan ulardan farqlanadi.

Taksonomiya tushunchasi yuzasidan ko'plab olimlarning qarashlari mavjud. Jumladan, pedagog olim J.Yo'ldoshevning fikricha taksonomiya "borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi" [Yo'ldoshev 2008: 63] dir.

Bizningcha, taksonomiya muayyan sohada obyekt yoki narsa-predmetlarni tabiiy muvofiqligiga ko'ra ierarxik (soddadan murakkabga) tartibda tasnif qilish, tizimlashtirish va turkumlarga birlashtirish haqidagi ta'limotdir.

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Benjamin Blum boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan pedagogik maqsadlarni qat'iy tartibda izchil ifodalash va tizimlashtirish masalasi yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Bu izlanishlarda o'quv maqsadlarining kognitiv sohada ifodalanishi o'z aksini topgan bo'lib, undan o'qitishni rejalashtirish va natijasini baholashda foydalanila boshlangan.

Pedagogik taksonomiya o'quv maqsadlari darajalari tartibi aniq belgilangan tizim bo'lib, pedagogik jarayonning o'zaro aloqadorligi va xossalariga ko'ra ko'p bosqichli tuzilishga ega obyektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish demakdir.

Amalda Blum taksonomiyasidan qanday natijalar ko'zlanadi?

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga Blum taksonomiyasini maqsadli tatbiq etishning dolzarbligini shundaki, u ta'lim maqsadlarining kognitiv (*bilish*), affektiv (*hissiy-qadriyatli*) va psixomotor (*harakatli*) sohalarini bo'yicha motivatsiya uyg'otishga qaratilgani, ya'ni o'qituvchidan pedagogik faoliyati davomida o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etishini, maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini oqilona tanlashini, shuningdek, o'quvchilar faolligini bir xilda ta'minlashni hamda materialni o'rganish bosqichlarini aniq rejalashtirishini taqozo etadi. Shuningdek, ta'lim subyektlarining mantiqiy va ijodiy fikrlashi, voqelikka nisbatan munosabatini ifodalashi, o'z qarashlarini asoslag-

an holda muayyan xulosalarga kelishi, o'zgaralar fikriga munosabat bildira olishi, umumlashtirishi, yaratuvchanlik kabi qobiliyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib borishga qaratilgani bilan ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv sohada bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llay olish, g'oyalar yaratish; *affektiv sohada* qiziqish va moyilliklarni rivojlantirish, atrofida qilargan nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatlarni qaror toptirish; *psixomotor sohada* esa narsa-predmetlar bilan ishlashni harakat usullari bilan uyg'unlashtirishga doir amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Aniqroq aytganda mazkur tushunchalar o'zida "bilaman", "his qilaman" va "yarataman" kabi ma'nolarni mujassam etadi.

Blum taksonomiyasining kognitiv sohasida bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish kabi o'quv maqsadlari mavjud bo'lib, ular quyi va yuqori darajalarga ega. Eslash, tushunish, qo'llash quyi darajaga; analiz, baholash va yaratish yuqori darajadagi o'quv maqsadlariga xos. Birmuncha sodda va yengilroq mazmundagi quyi darajadagi ko'nikmalar nisbatan murakkabroq bo'lgan yuqori darajadagi ko'nikmalar rivojida tayanchdir. Shuni ham aytish joizki, ta'lim amaliyotida faqat quyi bosqich darajalarida ish ko'rish tahlil, baholash va yaratish darajasidagi o'quv maqsadlarini amalga oshirishga monelik qiladi. Chunki quyi darajadagi bilimlarni o'zlashtirmay turib navbatdagi bosqichga o'tish samara keltirmaydi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etishda ta'lim maqsadlari oqilona belgilanishi va unga erishish yo'llari puxta rejalashtirilishi, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ko'rsatilgan mezonlar e'tibordan chetda qolmasligi muhim sanaladi.

Blum taksonomiyasida har bir daraja uchun quyidagi bilish jarayonlari mazmuni ishlab chiqilgan:

1. Eslash (Remembering) ilk tafakkur darajasi hisoblanib, unga ko'ra o'quvchi muayyan soha yoki fanga oid atamalarni ayta olishi, qoida, tushuncha va faktlar anglatadigan ma'no-mazmunni bilishi zarur. Mazkur tafakkur darajasida o'quvchi o'rganganlari yuzasidan takrorlash, mustahkamlash, ifodalash, farqlash, tanish va so'zlash kabilarini bajara olishi maqsadga muvofiq. Bu darajada, asosan, o'quv materiallarining asosiy elementlarini eslash, tushunish va qayta tiklashga doir o'quv maqsadlari ijrosi ko'zda tutiladi.

2. Tushunish (Understanding) darajasidagi tafakkurga o'quvchining ma'lumotlar, qoidalar, chizmalar yoki jadvallar mohiyatini tushunishi, mavjud faktlar asosida kelgusidagi natijalarni taxmin qilishi kabilar xos. O'quv materialini bir turdan boshqasiga

o'tkaza olish, voqea-hodisalarning navbatdagi bosqichini tasavvur qilish, asoslash, almashtirish, aniqlashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash kabilar bu tafakkur darajasi qatorini tashkil qiladi. Tushunish darajasi yangi vaziyatlarni o'rganishda mavjud bilimlarni qo'llash, natijalarni og'zaki tushuntirish, shuningdek, egallangan bilimlarni o'xshash vaziyatlarga ko'chira olish ko'nikmalarini shakllantirish kabi o'quv maqsadlarini ifodalaydi.

3. Qo'llash (Applying) nafaqat an'anaviy, balki notanish vaziyatlarda ham bilimlardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish bilan bog'liq darajadir. Bu tafakkur darajasi o'quvchidan joriy qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, tatbiq etish va hal qilishga qodirlikni taqozo etadi. U o'quvchining tushunchalar, algoritmlar va nazariy bilimlarni qo'llash kabi amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan.

4. Tahlil (Analyzing) darajasidagi tafakkur o'quvchini buning qismlari va ular orasidagi bog'liqlikni ko'rish, fikrlashdagi mantiqsizlik, fakt va natijalar o'rtasidagi tafovutlarni farqlash hamda ma'lumotlarning ahamiyatini baholashga o'rgatadi. Keltirib chiqarish, ajratish, tasniflash, taxminlash, taqsimlash, tekshirish va guruhlash bu darajada e'tiborga olingan xatti-harakat turlaridir. Tahlil butunni qismlarga ajratish, unsurlar o'rtasida aloqa o'rnatish va ularni tizimlashtirish kabi toifalar bo'yicha o'quv maqsadlarini aniqlashtiradi.

5. Baholash (Evaluating) darajasidagi tafakkur o'quvchida mezonlarni ajrata olish, ularning turfaligini ko'ra olish, xulosa va ma'lumotlarning muvofiqligini baholash, fakt va baholovchi fikrlardagi farqli jihatlarni ajratishni ko'zda tutadi. Tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, solishtirish mazkur darajasidagi ish turlari namunasi. Bunda o'quvchi fikr yuritishda aniq mezonlarga tayanishi muhim sanaladi. Ichki bilish, ishonch (argumentlash, mantiq) va standart, qoida, me'yor kabi tashqi mezonlarga baholash sifatida qaraladi. O'quvchining o'zi mezonlarni aniqlashi yoki ular o'quvchiga tashqaridan berilishi ham mumkin. Baholash darajasi avvalgi toifalar bo'yicha o'quv natijalariga erishganlik yuzasidan xulosalarni shakllantiradi.

6. Yaratish (Creating) darajasi o'quvchilardan ijodiy ishlash, tajribalar o'tkazish hamda yangi faoliyat mazmunini rejalashtirishni talab etadi. Bu esa, bir necha sohalaridagi bilimlarni qo'llashga yo'naltiradi. Bu tafakkur darajasi birlashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, uyg'unlashtirish, yaratish, tuzish va loyihalash kabi faoli-

yat turlaridan iborat. Bu daraja yaratish ko‘nimasini shakllantirish bo‘yicha o‘quv maqsadlarini amalga oshiradi. Muammolar yechimiga doir g‘oya va mulohazalarning umumlashishi, obyekt yoki predmetlarning ko‘rinishi, chizmasi yordamida funksiyalarni ifodalash kabi tuzilmalar sintezini o‘zida aks ettiradi.

Blum taksonomiyasini adabiy ta‘lim jarayoniga joriy etish masalasi so‘nggi yillarda B.To‘xliyev [To‘xliyev 2010: 167], G.Xolboyeva [Xolboyeva, 2019, 31–33.], Z.Mirzayeva [Mirzayeva, 2019, 20] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu izlanishlarda nazariyani badiiy asar tahliliga qo‘llashning ilmiy asoslari (adabiyotda shakl va mazmun mutanosibligi, badiiy obraz xususiyatlari, obrazli tafakkur va badiiy to‘qima, asar yaxlitligi, asar tili, badiiylik va boshq.)dan ko‘ra amaliy jihatlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Sohada matn ustida ishlash yo‘llarini Blum taksonomiyasi mezonlariga muvofiq tashkil etish masalalari metodistlar Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova [Husanboyeva, Niyozmetova 2018: 211–219]lar tomonidan atroflicha o‘rganilganini ta‘kidlash joiz. Shunga ko‘ra, Blum taksonomiyasining har bir mezonini qo‘llash bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni keltiramiz:

1. *Eslash* darajasi o‘quvchining adabiy-nazariy tushunchalarni bilishi, ularni o‘zlashtirishi va aytib bera olishiga doir savol-topshiriqlar yechimiga qaratilgan. Asar sujeti, qahramonlar ismi, voqealik, ular bo‘lib o‘tgan joy nomlarini eslab qolish va qayta hikoyalashni; sujet yoki kompozitsiyaning tarkibiy qismlarini to‘liq bilish, mazmunini anglab yetish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasavvur etish, muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Masalan:

a) asar qahramonlari kimlar?

b) voqealar qayerda va qachon bo‘lib o‘tadi? Bu kitobxonga nimalardan darak beradi?

c) asarning asosiy g‘oyasi nimadan iborat? va h.k.

2. *Tushunish* darajasida o‘quvchining asar mavzusi, g‘oyasi, yozuvchi maqsadi kabi tushunchalar yuzasidan fikrlashi, nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi tekshiriladi. Asardagi o‘zaro munosabatlarni tushuntirib berish, qisqacha bayon qilish, sujetning qanday davom etishini tasavvur qilish kabilarni tushunish ko‘rsatkichlari sifatida qabul qilish mumkin.

a) asar (qahramonlar) nima uchun shunday nomlanganini tushuntiring.

b) matnda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini toping. Muallifning ularni qo‘llashdan maqsadi nima ekanligini ayting.

c) qahramonlar ruhiyati bilan tabiat tasviri o‘rtasidagi bog‘liqlik xususida fikr yuriting.

3. *Qo'llash* darajasida asarda ko'tarilgan muammolarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etish, ya'ni bunda qahramonlarning xatti-harakatlari yoki muayyan lavhalar hayotdagi real voqea-hodisalar bilan qiyoslanishi, asar shakli va mazmuniga xos belgilarni aniqlay olishi kabilarga e'tibor qaratilishi muhim. Bunda qahramonlar tushgan vaziyatlardan yangi sharoitlarda foydalanish, adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni amalda qo'llay olish kabilar tushuniladi. Bu tushunishga nisbatan yuqoriroq natijani ko'zlaydi.

a) siz asar qahramoni o'rnida bo'lganigizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

b) qahramonlar duch kelgan muammolar yuzasidan o'z yechimingizni tavsiya qiling.

c) asar xotimasiga o'zingiz xohlagandek yakun yasang.

4. *Tahlil* darajasiga personajlarning xarakter xususiyatlarini aniqlash, asarni bo'limlarga, kompozitsion butunlikni qismlarga ajratish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, yaxlitlikni yuzaga keltirgan tamoyillarni anglash kiradi. Bu, o'z navbatida, avvalgilarga nisbatan yuqori darajadali bilan ahamiyatlidir.

a) asar sujetining tarkibiy qismlarini belgilang.

b) bosh qahramon (yordamchi personaj)ga xos xarakter xususiyatlarini tahlil qiling.

c) asarni qismlarga ajrating va o'zingiz xohlagandek nomlang, mazmuniga mos epigraflar toping.

5. *Baholash* o'quvchining asar mazmuni, qahramonlar taqdiri, muayyan voqelikning ahamiyatiga aniq maqsad asosida baho berishni, munosabat bildirishini taqozo qiladi. Ba daraja yuqoridagi o'quv maqsadlarining barchasi o'zlashtirilishini va belgilangan mezonlarga asoslanib baholay olishni bilishni nazarda tutadi.

a) siz o'zingiz yoqtirgan (yoqtirmagan) qahramonning qaysi xatti-harakatini oqlamagan (ma'qullagan) bo'lardingiz?

b) asardagi qaysi lavhalar tasvirini ishonarli emas deb topdingiz? Nima uchun?

c) muallif mahoratiga doir taqriz (asar mazmuni yuzasidan annotatsiya) yozing.

6. *Yaratish* darajasida izlanish (yangilik) natijasi mujassam bo'lgan butunlikdagi alohida elementlar uyg'unligi aks etadi. Ijodiy ishlar (insho, taassurot, sahnalashtirish), asar mazmuni yuzasidan umumiy xulosalarga kelish ko'nikma va malakalari rivojiga qaratilgan bunday mazmundagi ishlarda ish faoliyati (ma'ruza, taqdimot, nutq turlari) rejalashtiriladi va muayyan ko'rinishlarda o'quvchining ta'limiy mahsuloti sifatida (og'zaki yoki yozma) yuzaga chiqadi. Jum-

ladan:

- a) asarni maktab sahnasida qo‘yishga moslab ssenariy tuzing.
- b) lavhalarga mos dekoratsiyalar yarating.
- c) qahramonlardagi o‘zingizga yoqmagani xususiyatlarni o‘zgartiring va boshqalar.

Xulosa

Demak, Blum taksonomiyasi axborotlarni o‘zlashtirishda takomillashgan yondashuv bo‘lib, bilimlarni ma‘lum tartib asosida tasniflash hamda tizimlashtirib o‘rganish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. U nafaqat o‘quv maqsadlarini to‘g‘ri belgilashga, balki ularni o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirishga, natija tomon to‘g‘ri yo‘naltirishga, intellektual ko‘nikma va qobiliyatlarni tizimli va tadrijiy shaklda rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu o‘rganilgan materiallarni eslash, takror aytib berishdan to‘g‘ri uning mohiyatini chuqur o‘zlashtirishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi.

Adabiyot o‘qitishda esa obrazlardagi umumiylik va xususiylik; har bir detalning muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadga bo‘ysundirilgani; tanlangan chizgilar hayot manzarasini to‘laligicha yoritishga xizmat qilishi; xarakterlar, ziddiyatlar, to‘qnashuvlar va tuyg‘ular tasvirining hayot bilan aloqadorligiga doir bilish, his qilish va ijod qilish kabi aqliy operatsiyalarni oqilona amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Adabiyotlar

- Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. 2020. *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
- <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.
- Mirzayeva, Z. 2019. “O‘quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta‘lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida”. *Xalq ta‘limi* 4: 20 – 22.
- Tuxliyev, B. 2010. *Адабиёт ўқитиш методикаси*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Xolboyeva, G. 2019. “Adabiyot darslarida Blum taksonomiyasini qo‘llash samarasi”. *Til va adabiyot ta‘limi* 1: 31 – 33.
- Йўлдошев, Ж.Ф., Усмонов, С.А. 2008. *Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш*. Тошкент: Fan va texnologiya.
- Ўзбекистон миллий энциклопедияси*. Т ҳарфи. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. [www: ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, 58.
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. *Халқ сўзи*. 2019 йил 30 апрель.

Bloom's taxonomy as an important tool for customizing educational materials

Saodat Kambarova¹

Abstract

The article analyses about the peculiarities of Bloom's taxonomy in ensuring the effectiveness of education. Also, in the process of literary education, it is analyzed from the point of view that basing on the criteria of the levels of Bloom's taxonomy serves to acquire, systematize and use literary and theoretical concepts on the subject in certain conditions.

Key words: taxonomy, Bloom's taxonomy, stage, level, criterion, remembering, understanding, application, analysis, evaluation, creating.

References

- Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. 2020. *Adabiyot o'qitish metodikasi*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
<https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Википедия. Свободная энциклопедия.
- Mirzayeva, Z. 2019. "O'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta'lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida". *Xalq ta'limi* 4: 20 – 22.
- Тўхлиев, Б. 2010. *Адабиёт ўқитиш методикаси*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Holboyeva, G. 2019. "Adabiyot darslarida Blum taksonomiyasini qo'llash samarasi". *Til va adabiyot ta'limi* 1: 31 – 33.
- Йўлдошев, Ж.Ф., Усмонов, С.А. 2008. *Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш*. Тошкент: Fan va texnologiya.
- Ўзбекистон миллий энциклопедияси*. Т ҳарфи. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. [www: ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, 58.
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони. *Халқ сўзи*. 2019 йил 30 апрель.

¹Kambarova Saodat Irkinovna – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD), dotsent of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-pochta: saodatkambarova73@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9700-0685

For citation: Kambarova, S. 2022. "Bloom's taxonomy as an important tool for customizing educational materials". *Uzbekistan: Language and Culture* 2(4): 4 – 12.